

### **O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILI LEKSIK QATLAMIDA NEOLOGIZMLAR SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOSLIGI**

*O'razboyev Olimjon Rustam o'g'li*

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** *O'zbek va qoraqalpoq tili leksik taraqqiyotining navbatdagi bosqichi so'nggi o'n yillikdagi davri bilan bog'liqdir. Jamiyatimiz har bir sohasida boshlangan tub islohotlar, xalqaro madaniy, iqtisodiy, siyosiy hamda sport sohasidagi aloqalar ma'lum til o'zgarishlariga, tilimiz taraqqiyotiga yangi yo'l ochdi.*

**Kalit so'zlar:** agronomiya, agroiqtisodiyot, agrobiznes, agrosanoat, neologizm, "yangilanish", "o'zgarish", "zamonaviylashish", individual nutq neologizmi, rayon, oblast, otpuska, praktika, ekonomika, gimn.

**Summary:** *The next stage of the lexical development of the Uzbek and Karakalpak languages is related to the period of the last decade. Fundamental reforms in every sphere of our society, international cultural, economic, political and sports relations have opened a new way for certain language changes and development of our language.*

**Key words:** agronomy, agro-economics, agro-business, agro-industry, neologism, "renewal", "change", "modernization", neologism of individual speech, region, oblast, otpuska, practice, economy, anthem.

**Аннотация:** Следующий этап лексического развития узбекского и каракалпакского языков относится к периоду последнего десятилетия. Фундаментальные реформы во всех сферах нашего общества, международных культурных, экономических, политических и спортивных связей открыли новый путь для определенных языковых изменений и развития нашего языка.

**Ключевые слова:** агрономия, агро-экономика, агро-бизнес, агропромышленность, неологизмы, «обновление», «перемена», «модернизация»,

*неологизмы индивидуальной речи, регион, область, отпуск, практика, экономика, гимн.*

Uzoq vaqtlik muloqot natijasida til integratsiyasi sezilarli darajada har ikkala til leksik qatlamiga ham ta'sir qildi. O'zbek tili leksik qatlamiga yangi so'zlar, so'z birikmalari, iboralar, hattoki so'z yasovchi qo'shimchalar ham kirib keldi. Bunday so'zlar, avvalo, mavhum, keyinchalik ularning ko'pchiligi o'z qatlam so'zlari kabi tilimizga moslashib, ajratib bo'lmas holatda o'rinalashdi. Buning sababi sifatida o'zlashma so'zlearning tilda ko'p asrlik nutq jarayoni va til tizimidagi sinonimik, graduonimik, giponimik, bir so'zning faollashuvi ikkinchi so'zni passivlashishi jarayoni kabi munosabatlar hisobiga barqaror o'mashib qolgan deyish mumkin.

Muhimi shundaki, tilimizning shunday ko'p yillik omuxtalashish jarayonida ham leksik qatlamining katta qismi o'z so'zlarimiz hisobiga saqlab qolgani quvonarli hodisadir. Zeroki, leksikamizdagi o'zlashma so'zlar hisobi hozirgi davr fors tili leksikasiga qiyoslanadigan bo'lsa (ayrim mutaxassislarning ta'kidlashicha, bu til leksik qatlamining 65% ini arabcha so'zlar tashkil etadi) yuqoridagi holat nechog'lik ahamiyatga ega ekanligi va bugungi kunda fors millati uchun til sofligini saqlash davlat ahamiyatidagi masala sifatida turgani ma'lum bo'ladi.

Bu holat tilda so'z o'zlashishining me'yordan ortiq darajasi bo'lsa, tilimizdagi arab, fors so'zlarining leksik qatlamdagi o'rni, qo'llanishi va miqdori esa so'z o'zlashishining me'yordan darajasidagi holatini ko'rsatadi. Aynan shu so'z o'zlashishining me'yordan ortiqlik darajasi til taraqqiyotining salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin. O'rni kelganda shuni ham aytish lozimki, til omuxtalishishidan chetda qolgan, so'z o'zlashishining me'yordan past darajasida bo'lgan, globallashuv, madaniy, siyosiy, iqtisodiy, sport aloqalaridan uzilgan tilda ham shunday "yakkalanish" holatlar kutilishi mumkin. Hozirgi paytda dunyo tillari orasida o'lik tillar qatoriga o'tib borayotgan bir necha tillar shunday tarixiy jarayonni boshidan kechirmoqda.

Leksikografik sistemadagi yangi neologizmlar ma'lum bir sohadagi tushunchani ifodalab, ular ma'lum bir predmetlar guruhiga, jarayonlarga oid tushunchalardir. Har bir yangi terminologik guruhda umumiy bir unsur bo'ladi. Masalan: *agro so'zi* – agronimiya, agroiqtisodiyot, agrobiznes, agrosanoat kabi o'zlashma neologizmlar uchun asosiy unsur hisoblanadi. Shunday xalqaro terminelementlar soni hozirda 200dan ortiqligi tilshunoslar tomonidan aniqlangan. XXI asrda jamiyat hayotida boshlangan tarixiy o'zgarishlar tilimizda ham o'z aksini bera boshladi. Bu davr so'zlarning o'zlashish va so'zlarning chiqib ketish jarayonining tezlashgan davri bo'ldi. XX asrda maktablar tashkil etilishi, ommaviy savod chiqarish, gazeta va jurnallarning chop etilishi, maktablarida savod chiqarish kabi omillar asosida bu holat yanada tezlashdi. Bu davrning muhim xususiyati shundaki, tilimizga nafaqat ruscha so'zlar, balki rus tili orqali ko'plab inglizcha, fransuzcha, italyancha va boshqa tillardan so'zlar kirib keldi.

O'zlashma so'zlar datlabki davrda neologizm xarakterida bo'lsa-da, keyinchalik asta-sekin qabul qiluvchi til qonuniyatlariga va tamoyillariga bo'ysunishi, xuddi o'z so'zdek, tushunarli va aniq bo'lishi lozim. Yangi(zamonaviy) so'z aniq, qisqa va tushunarli bo'lishi kerak. Yangi so'zlarning aniqlik tushunchasida uning ma'noviy komponentlarining umumiy ma'nolari tushuniladi. (*barg*), fonetik qayta shakllanishi (*karavot*), grammatik singishi (*bankdan*), so'z yasash tizimida faol ishtirok etishi (*traktorchi*), takror-takror qo'llanishi tufayli uning yot elementigi sezilmay qoladi<sup>1</sup>.

O'zbek va qoraqalpoq tili leksik taraqqiyotining navbatdagi bosqichi so'nggi o'n yillikdagi davri bilan bog'liqdir. Jamiyatimiz har bir sohasida boshlangan tub islohotlar, xalqaro madaniy, iqtisodiy, siyosiy hamda sport sohasidagi aloqalar ma'lum til o'zgarishlariga, tilimiz taraqqiyotiga yangi yo'l ochdi. Muhimi shundaki, bu davrga kelib, turli tillarga oid turli soha so'zları kirib kelishi kuchaydi. Dunyo tillarini o'rghanish bilan birga ularning milliy-madaniy

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10-tom. 2002, 498-bet.

an'analari, urf-odatlariga muvofiq tushuncha va so‘zlarning o‘zlashishi tilimiz lug‘at boyligini yanada oshirdi.

Bugun dunyo hamjamiyati barcha jabhada globallashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. Aslida globalshuv doimiy jarayon bo‘lib, termin sifatida o‘zi bilan birga – “yangilanish, “o‘zgarish”, “zamonaviylashish” kabi bir qator ma’nolarni ham ergashtirib yuradi. Lingvistik nuqtayi nazardan zamonaviylashish jarayonini o‘rganish ham tadqiqotchini keng qamrovda izlanishga undaydi: terminlarni til madaniyatining bir elementi sifatida qarash til egasining tilga munosabatini ham yoritishni talab etadi. Har qanday holatda ham zamonaviylashish jarayoni bor va u lingvistik hosilalarga ega. Tilshunoslikda mazkur hodisa bir necha ko‘rinishga ega bo‘lib, termin sifatida unga quyidagicha ta’rif berishimiz mumkin:

Til modernizatsiyasi – ma’lum bir tilning boshqa tillar ta’siri bilan zamonaviylashishi;

Leksik modernizatsiyalashish (zamonaviylashish) – ma’lum bir tilga ayni davrda urfda bo‘lgan chet tildagi so‘zlarning o‘zlashishi va o‘sha tilda muqobilli yoki muqobilsiz tarzda iste’molda bo‘lishidir.

XXI asr jahon hamjamiyati tomonidan ulkan o‘zgarishlar, texnik taraqqiyot, axborotlashtirish asri sifatida tarixda qolishi e’tirof etilmoqda. Ayni paytda qisqa muddat davomida yangiliklarning dunyo bo‘ylab ommalishishi, jamiyatdagi shunday yangiliklarga bo‘lgan ehtiyoj har bir til leksik tarkibining ma’lum bir jihatdan o‘zgarishiga olib kelmoqda. Bugungi kun neologizmlarning kirib kelishi, ularni omma tomonidan iste’molda bo‘lishi tilimiz lug‘atlarida aks etishini kutayotgani yo‘q. Zamonaviy texnika sohasidagi xalqaro bog‘liqlik va yaqinlik tilimizda ko‘plab shunday tushunchalarni o‘z so‘zlarimiz bilan ifodalashga o‘rin qoldirmayapti. Ba’zi bir o‘zlashma so‘zlarning ma’nolari lug‘atlarda ham qayd etilmagan (*Flesh, Koka-kola, Pepsi, Moxito*). Bugungi kunda zamonaviy texnika so‘zlari dunyo bo‘ylab baynalmilal soha so‘zları darajasiga ko‘tarilib bormoqda.

Istiqloldan so‘ng o‘zbek va qoraqalpoq tili lug‘at boyligi ham shunday so‘zlar hisobiga kengaydi va taraqqiy etdi. Buning sababi sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin.

1. Mustaqillikdan so‘ng jamiyat hayotida siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy va boshqa sohalarda bo‘lgan o‘zgarishlar.
2. Juhon miqyosidagi ilf-fan, texnika, axborot-kommunikatsiya va sport taraqqiyoti ta’siri.
3. Xorijiy tilda muloqot qiluvchi yurtdoshlarimizning yangi (zamonaviy) o‘zlashma so‘z va terminlarni o‘z nutqlarida ko‘plab qo‘llashlari.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida o‘zlashma so‘zlarning qaysi tilga tegishli ekani alohida shartli qisqartmalar asosida ko‘rsatilar ekan, ularning o‘z tilidagi lug‘aviy ma’nosi va tilimizga o‘zlashganidan keyingi bir ma’noliligi yoki ko‘p man’nolilik xususiyati alohida ko‘rsatib berilgan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘zbek tilining izohli lug‘atida o‘zlashma so‘z olib kirgan tillar sifatida 16 ta til so‘zlaridan misollar berilgan. Bular sirasiga *arab*, *fransuz*, *fors-tojik*, *golland*, *hind*, *ingliz*, *ispan*, *italyan*, *lotin*, *mo ‘g‘ul*, *nemis*, *polyak*, *rus*, *xitoy*, *yunon*, *chex* tillari kiritilgan. Biroq adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati<sup>2</sup> va qisqacha siyosiy lug‘at<sup>3</sup> da *portugal* va *skandinavcha* tillardan olingan so‘zlar ham ko‘rsatilgan. Bu kabi tillardan olingan so‘zlar ma’lum bir sohaga oid termin ekanligi uchun “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan o‘rin olmagan bo‘lishi mumkin.

Neologizmlarning paydo bo‘lish yo‘llari xilma-xil bo‘lib, ular tilning mavjud lug‘aviy tarkibi va grammatik qonun-qoidalari asosida yangi so‘z yasash yo‘li, shuningdek, mavjud so‘zning lug‘aviy ma’nolaridan birini yangi ma’noda qo‘llash yo‘li bilan va boshqa tildan so‘z qabul qilish orqali hosil qilinadi<sup>4</sup>.

Ma’lumki, tilda umumtil neologizmi va individual nutq neologizmi mavjud bo‘lib, umumtil neologizmi jamiyat hayotida katta o‘rin egallaydi. Bunday

---

<sup>2</sup> Hotamov N. Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. –T. O‘qituvchi. 1979. 6-bet.

<sup>3</sup> Onikov L.A., Shishlin N.V. Qisqacha siyosiy lug‘at. –T. O‘zbekiston. 1983. 6-bet.

<sup>4</sup> O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-tom. 308-bet.

neologizmlar muallif tomonidan ma'lum bir uslubiy talab asosida yaratiladi. Biroq har qanday yangi neologizmlar, avvalo, individual nutqda paydo bo'ladi. Bunday so'zlar jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilinsa, til tizimida shu so'zga ehtiyoj bo'lgan holatdagina o'z vazifasini bajarib, umumtil neologizmi qatoriga o'tishi mumkin. Tilimizda shunday vazifani bajara olmay individual nutq neologizmi sirasiga qolib ketayotgan leksemalar ham talaygina.

Ba'zi manbalarda neologizmlar ma'lum bir guruh va turlarga ajratib o'rganilar ekan, haqiqiy neologizmlarning paydo bo'lishi nomlangan voqelikning yangi nomi bo'lishi lozimligini asos qilib olishadi<sup>5</sup>. Biroq hozirgi paytda til tizimida neologizmlarning paydo bo'lish talabi jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda o'zgardi. So'zlarning bir tildan ikkinchi tilga o'tishi ma'lum bir yangi voqeа-hodisaning yangi nom sifatida shakllanishiga, til leksik "to'plam"iga o'rashishiga sabab bo'lmoqda. Jahon xalqlari orasidagi o'zaro madaniy, siyosiy, iqtisodiy hamkorlik til rivojlanish jarayoniga ham o'zining shunday ta'sirlarini o'tkazib bormoqda.

Mavjud manbalarda neologizmlar o'rganilar ekan, ularda bugungi kun neologizmlari sifatida ma'lum bir so'zlarni alohida ta'kidlab ko'rsatilganini kuzatish qiyin. Shunday neologizmlar qatoriga *kosmos*, *telivedeniye*<sup>6</sup>; *konfliktsizlik*, *kosmodrom*<sup>7</sup>; *marketing*, *qayta qurish*, *reyting*, *tender*<sup>8</sup> kabilar ko'rsatilsa-da, ularni hozirda yangilik bo'yog'ini yo'qotgan, zamonaviy qatlama so'zleri sifatida baholab, hozirgi iste'molda bo'lgan yangi so'zlarga misol bo'lmaydi. Buning sababi shundaki, umumtil neologizmlarining qisqa muddat shu vazifani bajarishi, bu tushunchaning nisbiyligi, shuningdek, ko'pgina so'zlarning yangilik bo'yog'ini jamiyatning barcha soha vakillari birdek qabul qilmasligidadir.

Neologizm tushunchasi va tilimizda paydo bo'layotgan yangi so'zlarni turli soha vakillari va jamiyatning turli qatlama kishilari uchun doimo birdek ahamiyat

---

<sup>5</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-tom. 309-bet.

<sup>6</sup> Shoabdurahmonov Sh. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., O'qituvchi. 1980. 127-b.

<sup>7</sup> Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., O'zbekiston. 1992. 156-b.

<sup>8</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 tom. 2000-2006.

kasb etmasligi masalasini turlicha tushunish mumkin. Odatda ziyoli, yangilikka qiziquvchi kishilar va yoshlar atrofdagi o‘zgarishlarga nisbatan befarq bo‘lishmaydi. Ular jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlarni tez anglaydilar. Ba’zi bir tabaqa vakillari borki, ularga ma’lum bir texnologiya va yangilik ko‘z o‘ngida joriy qilinmagunga qadar bu hodisaga befarq bo‘lishi kuzatiladi. Umuman olganda, jamiyat a’zolarining neologizmlarga bo‘lgan munosabati ularning ijtimoiy hayotga bo‘lgan faol yoki sust yondashishi bilan bog‘liqdir. Shunga ko‘ra, ayrim o‘rinlarda ba’zi bir yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan zamonaviy so‘zlarning (neologizmlarning) tilda tutgan o‘rni haqida keskin xulosa chiqarish to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin.

Bundan 20-30 yil ilgari ham har ikkala tilning boyishida ham ichki manba orqali so‘z yasashdan ko‘ra o‘zlashtirish ustun bo‘lib borayotgani kuzatilgan edi<sup>9</sup>. Hozir ham tilimiz taraqqiyotida shunday jarayon davom etmoqda.

Mustaqallikdan so‘ng tilimizga yangi so‘zlarning kirib kelishi qanchalik tezlashgan bo‘lsa, ko‘pgina so‘zlarning tilimizning leksik qatlamidan chiqib ketishi shunchalik tezlashdi. Shu bilan bir qatorda tilimizga *blog*, *piar*, *WiFi*, *brend*, *email*, *virtual*, *menejer*, *paynet* kabi neologizmlar ham kirib keldi.

Eskirgan so‘zlar sirasidagi *rayon*, *oblast*, *otpuska*, *praktika*, *ekonomika*, *gimn*, so‘zları iste’moldan chiqib o‘rnini yangi so‘zlar yoki ma’nodosh qatoridagi boshqa bir so‘z egallagan bo‘lsa, *sovxozi*, *kolxozi* so‘zları tarixiy so‘zlar qatoriga o‘tdi. Bu kabi sho‘rolar boshqaruvi tizimini ifodalovchi eskirgan so‘zlar tilimizda talaygina topiladi.

Tilimizda mavjud bo‘lgan *vazir*, *posbon*, *hokim*, kabi ko‘pgina so‘zlarning vazifa doirasi va mazmuniy mundarijasi kengaydi<sup>10</sup>. Shakllangan bozor iqtisodiyoti sohasidagi yangi tushunchalar, fan va texnika, axborot-kommunikatsiya, sport sohasidagi yangi so‘zlar tilimiz boyligini oshirishda muhim omil sifatida qaraladi. Texnika sohasining kompyuter, internet va ular bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lum bir soha so‘zları tilimizda soha (terminologik)

---

<sup>9</sup> Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T., O‘zbekiston. 1992. 175-b

<sup>10</sup> O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.–T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12-tom. 2006. 65-bet.

so‘zlari sifatida emas, kengaygan holda umumiste’mol so‘zlari sifatida ishlatilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qurbonova, M., Abjalova, M., Axmedova, N., To‘laboyeva, R. 2021. O‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zlarning urg‘uli lug‘ati, 2 jild. Toshkent.
2. Hamidulla Dadaboyev. 2019. O‘zbek terminalogiyasi. Toshkent.
3. Antonova O. A. 2005. “Biz qaysi tilda gaplashamiz?”.
4. O‘zbek tiliga xorijiy tillardan kirib kelganiqtisodiy va biznes sohadagi neologizmlar. Manzura Abjalova Xursandoy Geldiyev
5. Shoabdurahmonov Sh. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T., O‘qituvchi. 1980. 127-b.
6. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T., O‘zbekiston. 1992. 156-b.
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 tom. 2000-2006.
8. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T., O‘zbekiston. 1992. 175-b